

BO‘LAJAK “TEXNOLOGIYA” FANI O‘QITUVCHILARINING RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA ISHLASH BO‘YICHA MUHIM KASBIY SIFATLARI SHAKLLANTIRISHDA O‘QUV KASBIY FAOLIYAT MAQSADINI VA MAZMUNINI LOYIXALASH

Mo’manova Dilnavoz Komilovna

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining raqamli ta’lim muhitida ishlash bo‘yicha muhim kasbiy sifatlari shakllantirishda o‘quv kasbiy faoliyat maqsadini va mazmunini loyixalash hamda o‘qituvchilarining “kasbiy faoliyatga tayyorgarligi” kompetensiyasi kasbiy faoliyatni amalga oshirish layoqati kompetensiyasi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so’zlar: texnologiya fani, raqamli ta’lim, kasbiy, maqsad, mazmun, loyixalash, tayyorgarlig, kompetensiya, faoliyat, layoqat.

Mamlakatimizda ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ko‘zga ko‘rinarli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqa umumta’lim maktablari uchun pedagoglar tayyorlaydigan oliy ta’lim muasssalarida raqamlashtirish ta’lim muhitida bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarini tayyorash muxim hisoblanadi.

“Texnologiya” fani o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘quv-kasbiy faoliyat maqsadi va mazmuni huquqiy me’yoriy xujjalarga muvofiq kompetentli va amaliyatga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ishlab chiqiladi. Bunda “kasbiy faoliyatga tayyorgarligi” kompetensiyasi kasbiy faoliyatni amalga oshirish layoqati kompetensiyasiga almashadi. Izlanishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, malaka talablariga raqamlashtirish ta’lim muhitida ishlash bo‘yicha muhim kasbiy sifatlarni shakllantirish talabi ham qo‘yiladi.

Raqamlashtirish ta’lim muhitida doirasida o‘quv-kasbiy faoliyat maqsadi va mazmunini quyidagi mezonlar bo‘yicha ko‘rib chiqdim.

Raqamlashtirish ta’lim muhitida bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilari ishlash uchun kerakli muhim kasbiy sifatlarni shakllantirishda motivatsion ehtiyojli mezon. Ushbu mezon orqali talabaning

Raqamlashtirish ta’lim muhitida pedagogik faoliyat yuritishga bo‘lgan motivatsiya darajasi,

Raqamlashtirish ta’lim muhitida da ishlashning ijtimoiy ahamiyatini tushunish, Raqamlashtirish ta’lim muhitida ishlashga munosabati, raqamlashtirish ta’lim muhitida ishlash bo‘yicha doimiy malakasini oshirib borishga bo‘lgan qiziqishini aniqlashtirildi.

Gnostik mezon orqali talabaning raqamlashtirish ta’lim muhitida kasbiy faoliyatni amalga oshirish bo‘yicha tasavurini, Raqamlashtirish ta’lim muhitida nazariy va amaliy o‘quv materiali integratsiyalash ko‘nikmasi, Raqamlashtirish ta’lim muhitida ishlash bo‘yicha bilimlari aniqlashtirildi.

Jarayonli mezon orqali talabaning raqamlashtirish ta’lim muhitida ishlash bo‘yicha muhim kasbiy sifatlarini malaka talablariga mos holda turli kasbiy faoliyat ko‘rinishlarida qo‘llay olish ko‘nikmalari bilan aniqlashtirildi.

O‘z-o‘zini baxolash mezonli orqali talabaning raqamlashtirish ta’lim muhitida kasbiy faoliyatini amalga oshirish doimiy ravishda o‘zi baxolab borish ko‘nikmasi aniqlashtirildi.

Yuqorida keltirilgan mezonlar orqali aniqlashtirilgan kasbiy muhim sifatlarni shakllantirishda quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi.

Tayyorlov bosqichida bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining raqamlashtirish ta’lim muhitida ishlash uchun kerakli muhim kasbiy sifatlarni ishlash bo‘yicha individual qobilyati motivatsion emotsiyal gnostik, jarayonli va o‘z-o‘zini baholash mezonlar orqali aniqlanib dastur ishlab chiqildi.

Asosiy bosqichda bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining raqamlashtirish ta’lim muhitida ishlash uchun kerakli muhim kasbiy sifatlar shakllantirishga oid ishlab chiqilgan dastur bo‘yicha “Texnologik ta’lim” yo‘nalishida ixtisoslik fanlarini o‘qitishda rakamli ta’lim muhitini qo‘llab nazariy amaliy,

laboratoriya hamda mustaqil ish mashg‘ulotlari olib borildi. Ixtisoslik fanlarini o‘qitish raqamlashtirish ta’lim muhiti orqali MOODLE ta’lim tizimida amalga oshiriladi.

Yakuniy bosqichda bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining raqamlashtirish ta’lim muhitida ishlash ishslash bo‘yicha shakllangan muhim kasbiy sifatlar baxolandi.

Olib borgan tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatadiki bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining raqamlashtirish ta’lim muhitida ishlash uchun kerakli muhim kasbiy sifatlar shakllantirishda o‘quv-kasbiy faoliyat maqsadi va mazmunini loyixalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги №ПФ-6079 сонли “Рақамли Ўзбекистон-2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Фармони.
2. Каракозов, С. Д. Развитие цифровой образовательной среды в Российской Федерации: механизмы развития и возможные риски [Электронный ресурс]/ С. Д. Каракозов, Л. Р. Пикалова, Е. П. Седова, О. Н. Титова // Ростовский научный журнал.– URL: <http://rostjournal.ru/?p=3683> (дата обращения: 06.10.2017).
3. Толковый словарь русского языка TextoLogia.ru [Электронный ресурс]: Режим доступа URL: <http://ozhegov.textologia.ru/> (дата обращения: 10.04.2016).
4. Чекалева, Н. В. Инновационные подходы в подготовке будущих специалистов [Текст]/Н. В. Чекалева// Педагогика в правоохранительных органах. – 2012. – №2(49).– С.105-110
5. Dilafruz Ahmadovna Sayfullayeva. “Methodology of using innovative technologies in technical institutions”. PSYCHOLOGY AND EDUCATION. Scopus International Journal.(2021) 58(1)
6. Сайфуллаева Д.А Пути повышения эффективности преподавания специальных дисциплин. International conferenceon science and education.Turkey.-2021. B.72-74
7. SayfullayevaD.A, Rustamov E.T, Rayimova D.D, Jabborova M. J., Faridov M. F. CHARACTERISTICS OF TECHNICAL CREATIVITY IN TECHNOLOGICAL EDUCATION. Innovative technologica methodical research journal.2021.B-37-41